

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ОНА ТИЛИНИ ЎҚИТИШГА ДОИР АДАПТИВ КЎНИКМАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Келдиёрова Манзура Файбуллаевна

*Иқтисодиёт ва педагогика университети “Педагогика ва уни ўқитиши
методикаси” кафедраси катта ўқитувчиси*

Annotatsiya. Maqolada oliv ta'limda ona tilini o'qitishda o'qituvchidan pedagogik adaptiv ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalanish, ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish masalalari talqin qilingan

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы наличия у преподавателя педагогических адаптивных навыков при преподавании родного языка в высших учебных заведениях, самообразования и саморазвития, наиболее эффективных форм, методов и средств в образовательном процессе, способности к творчеству, инициативности и организаторской деятельности.

Annotation. The article interprets the issues of having pedagogical adaptive skills from the teacher in teaching the native language in higher education, self-education and self-development, the most effective form, method and means in the educational process, the ability to be creative, initiative and organizational

Kalit so'zlar: talaba, o'qituvchi, ta'lim, tarbiya, jarayon, vaziyat, masala, ijod, tashabbus, adaptatsiya, shakllanish.

воспитательный процесс, ситуация, дело, креативность, инициатива, адаптация, становление.

Key words: student, teacher, education, upbringing, process, situation, matter, creativity, initiative, adaptation, formation.

O'zbekiston uchun istiqbolli, davlat talablariga mos keladigan ta'lim tizimini yaratish porloq kelajakka yo'naltirilgan yagona yo'ldir. Mamlakatda bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Insoniyat jamiyat sivilizatsiyasi davomida ta'lim va ilm-fanni yuqori darajada rivojlantirish ijtimoiy, texnik hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayverlari hisoblangan. Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi, jamiyatning muhim muammolarini hal etishda ham u asosiy o'rin egallaydi. Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va gumanitar muammolarini bartaraf etishga mislsiz ta'sir ko'rsatadi. Ta'limga nisbatan inson hayotining ajralmas bir bo'lagi va unga o'zining jamiyat hayotida muhim o'rin tutishini anglab yetishida muhim vosita sifatida qarash asrlar davomida, ya'ni antik davrdan to zamonaviy ko'p qutbli dunyogacha bo'lgan davr mobaynida o'zgarib bordi. Biroq ta'limning bu borada tutgan o'rni ko'pincha ma'naviy-intellektual nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Inson kapitali mamlakatning muhim boyligidir. Uning har tomonlama ko'payishi va taraqqiy etishi, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan, professional tayyoragarlikka ega, mamlakatni modernizatsiya qilish va demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan, yurtimiz va xalqimiz manfaatlariga sadoqatli xizmat qiladigan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi ertangi kunimizni hal qiluvchi ustuvor masaladir. So'nggi yillarda O'zbekistonda barcha sohalar singari ta'lim sohasida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi islohotlarni bardavom ettirishda ta'lim va tarbiya uyg'unligi milliy taraqqiyotga erishish kafolatidir.

Jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi

bilan bog'liq bo'lib kelgan. Shu boisdan ham istiqlolimizning ilk qadamlaridan boshlab, mamlakatimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ular dunyoqarashini yangicha qadriyatlar asosida shakllantirish ishi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bunda eng muhimi, ta'lim-tarbiya tizimida eskicha qoliplardan tezroq voz kechish, ta'limga doir eng ilg'or, zamonaviy, xalqimizga xos milliy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga hamohang usullarni topish va amaliyotga joriy etish, sharqda qadimdan amalda bo'lgan prinsip — ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratmaslik va ularning o'zaro mutanosibligiga erishish g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bunda esa yosh avlodning bugungi kun talab va istaklaridan kelib chiqib, zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari uchun faqatgina ta'lim tizimining bir bo'g'inini isloh qilishning o'zi yetarli emasligini hayotning o'zi isbotlamoqda.

Biz bugungi kun talablaridan kelib chiqib, zamonaviy oliv ta'limda bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash hamda ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko'tarish, oliv ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish, ta'lim innovatsiyalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Ta'lim tizimi rivojlanishi uchun yangi innovatsion g'oyalar, takliflar va tashabbuslar bilan oldinga chiqib, ularni qo'llashga qodir bo'lgan, kasbiy bilimlarga ega, salohiyati yuksak raqobatbardosh kadrlarini tayyorlash, oliv ta'lim bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari dolzarb vazifalar sifatida belgilab olingan. Ayniqsa, ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, shu jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishning metodik tizimi hamda shart-sharoitlarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi.

Oliy ta'limda ona tilini o'qitishda o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yemoqda. Oliy

ta'limda ona tilini o'qitishda o'qituvchidan pedagogik adaptiv ko'nikmalarga ega bo'lishi taqozo qilinadi.

Adaptiv ko'nikmalar, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish asosida o'z faoliyatini qayta qurish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ular:

1. Mustaqil va ijodiy fikrlash adaptiv ko'nikmasi;
2. Nutqiy adaptiv ko'nikmasi;
3. Lingvistik adaptiv ko'nikmasi;
4. Sotsiolingvistik adaptiv ko'nikmasi;
5. Pragmatik adaptiv ko'nikmasi;
6. Kommunikativ adaptiv ko'nikmasi;
7. Axborot texnologiyalari bilan ishslash adaptiv ko'nikmasi;
8. O'z-o'zini rivojlantirish adaptiv ko'nikmasi.

Ona tili yo'nalishi bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs qo'yidagi talablarga javob berishi lozim:

- o'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi;
- zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi;
- o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi;
- pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi;
- ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i;

- ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi;

- yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika,

pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishi kabilar.

Oliy ta'linda ona tilini o'qitishda o'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

- a) nutqning to'g'riliqi;
- b) nutqning aniqligi;
- v) nutqning ifodaviyligi;
- g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'limgan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan xoli bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;
- d) nutqning ravonligi;
- j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqolalar, matallar va ko'chirma gaplardan o'rqli va samarali foydalana olish).

O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'limgartarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishini o'zlashtirishga erishishi lozim.

O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

Ta'lim sohasidagi dolzarb vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, o'quvchilarining xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq .

O'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirishda o'quvchilarining

tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o'quv materialini tanlash, uni analiz va sintez qila olish, ilmiy materiallarni qayta ishlab, o'quv materialiga aylantira olish, ma'lum murakkab matnlarni va o'quv materialini o'zlashtira olish ko'nikmasini shakllantirib borishi lozim. O'qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, katta natijalarga erishadi, o'z ishining natijasi bilan mo'jizalar yaratadi, ijodkor bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. Pedagogik faktlar va ularning tahlili shundan dalolat beradiki, muallim o'quvchilar bilan muomalada ma'lum axloqiy talablar, mezonlarga amal qilishi zarur. Pedagogik faoliyat jarayonida muallim har bir o'quvchining qadr-qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, o'quvchiga nisbatan ishonch, o'quvchining bilimi va xulqini baholashda talabchan,adolatli bo'lish, bolalarda o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik va tanqidiy munosabatni o'stirish, mehribon, g'amho'r bo'lishi, mushkul vaziyatga tushib qolganda unga ko'maklashish, nizolarni ahloqiy mezonlar asosida hal etishi, jamoaning fikr-mulohazalarini e'tiborga olish, ularga ishonch bilan qarash, bolalar bilan muomala va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish, pedagogik taktni saqlash muhim hisoblanadi. Ta'lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi va muvaffaqiyati o'quvchilar mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratsa, o'quvchilar bilimlarini bamisol o'zları olayotgandek his etishsa, mazkur metod samarali bo'ladi. Ta'lim metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi, uning psixologik-pedagogik, metodik va maxsus ilmiy tayyorgarligi namoyon bo'ladi. O'qituvchi pedagogik faoliyati davomida ko'pgina omillarni to'playdi, tahlil qiladi. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda o'qituvchilik kasbiga qiziqish, havas katta rol o'ynaydi. Qiziqish bilan bajariladigan faoliyat, u qanchalik murakkab bo'lmasin, hatto muvaffaqiyatsizliklarga uchramasin, kishiga katta ichki qoniqish, mamnuniyatlik baxsh etadi. O'qituvchining bilimi qanchalik keng va chuqr bo'lsa, unda o'quvchilarga shu bilimni berish ishtiyoqi shunchalik zo'r bo'ladi. Bunday

o'qituvchi eng yaxshi pedagog hisoblanadi, ularning ko'pchiligi o'z fanining ustalari, metodistlari bo'lib qoladi. Pedagogik faoliyatning nazariy asosiy kasbga oid bilimlardir. U faqatgina o'z predmetini emas, balki pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarini o'zlashtirishi va ularni muntazam to'ldirib borishi lozim. Ilg'or pedagogik texnologiyaning markazida ta'lif jarayonning rahbari xamda shu jarayonning subyekti ham obyekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi turadi.

Shunday ekan, bu ikki shaxsning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir- biriga ko'rsatadigan ta'siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi kerak. Buning uchun birinchi navbatda, o'qituvchi ta'lif-tarbiya jarayoni oldiga quyilgan talablar, ta'lifni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qishga, o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muoammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, sinfda ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Ona tili fani o'qituvchilariga quyidagi davlat talablari qo'yiladi:

- "Davlat tili" haqidagi Qonunni bilishi;
- yangi tahrirdagi davlat ta'lif standartlari va o'quv dasturlarining oldingi dastur va DTSdan farqini aniq bilishi;
- ta'limga oid meyoriy hujatlardagi yangiliklarni mavzular mazmuniga singdirib o'qitish metodikasini bilishi;
- ona tili va adabiyot fanidan yaratilgan yangi muqobil darsliklarni tahlil qila olishi va ular bilan ishlashi;
- tilshunoslikdagi nazariy xulosalarni amaliyot bilan bog'lay olishi;
- ona tili bo'yicha ilmiy-tadqiqot, metodik ishlarni olib borish talablarini bilishi amaliyotga tatbiq eta olishi;
- ona tili yo'nalishida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi va oliy pedagogik ta'lifning davlat ta'lif standartlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- soha bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar hamda to'garak ishlarini rejalashtirish, tashkil etishning yangi shakllarini bilishi;

- an'anaviy, noan'anaviy darslar, dars tizimi, dars tipi va dars turlarini bir biridan farqlashi va to‘g‘ri tanlay olishi;
- ona tili darslarida til va nutq ko‘nikmalarini nazorat qilish, yozma ishlarni o‘tkazish, murakkab mavzular bo‘yicha testlar tuzish hamda ularni qo‘llash metodikasini bilishi;
- ona tili bo‘yicha yetuk mutafakkirlarning ma’naviy va ma’rifiy, madaniy meroslarini bilishi va ta’lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish malakasiga ega bo‘lishi;
- ona tili yo‘nalishidagi ilg‘or ish tajribalarni bilishi va ulardan o‘z faoliyatida foydalanish malakasiga ega bo‘lishi;
- ona tili fanidan iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqalashgan ta’lim berish metodikasini bilishi;
- ona tili bo‘yicha muammolar, yangiliklar, kashfiyotlar, ilmiy izlanishlar, milliy va jahon pedagogikasi taraqqiyotidagi tadqiqotlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishi;
- ona tili darslarida foydalanishga mo‘ljallangan qomus va o‘quv lug‘atlarini bilish va ulardan amaliy foydalana olish malakalariga ega bo‘lishi;
- umumiyo‘rta ta’lim muassasasida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-qoidalari egallagan bo‘lishi;
- ona tili fanini o‘qitish bo‘yicha tajriba almashish va ilg‘or tajribalarni ommalashtirish yo‘llarini bilishi va hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari bilan tanish bo‘lishi;
- umumiyo‘rta ta’lim muassasasida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-qoidalari egallagan bo‘lishi;
- umumiyo‘rta ta’lim muassasasi pedagog xodimlarini attestatsiya qilish va toifalarini ko‘tarish tartib-qoidalari haqida tushunchaga ega bo‘lishi;
- mustaqil ravishda o‘z malakasini oshirishning yo‘l va usullarini bilishi va egallagan bo‘lishi kerak.

Bizning fikrimizcha ona tili o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalarining o‘ziga xosligi ish faoliyatida egallagan bilimlarini amalda mahorat bilan qo‘llay olishida

namoyon bo'ladi. Mazkur xususiyatlari, uning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadi:

1. Pedagogik faoliyatning tezkor va tizimli hamda izlanuvchanlik, yangilikka intiluvchanlik, har qandash vaziyatni darhol tahlil qilish va darhol harakat qilishni talab qiladi.

2. Muammoli vaziyatning eng yaxshi yechimini ishonchli tanlashning cheklangan imkoniyatlari.

3. Pedagogik faoliyatni doimiy ravishda, kundan-kunga yangian yangi samarali g'oyalar qo'llagan holda olib borish.

4. Faoliyat jarayonida muhim kasbiy xususiyati asosiy natijalariga ko'ra ta'lim oluvchilarining ijobiy fazilatlarini rivojlantirishga intilish.

5. Ta'lim jarayonida ta'lim natijalariga erishish uchun ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar jamoaviy hamkorlikdagi harakatlarini yo'lga qo'yish.

6. Samarali pedagogik jarayon ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar mas'ulit bilan tizimli ravishdagi sa'y-harakatlarining yaxlitligi bilan belgilanadi.

7. Ta'lim jarayonida egallangan ixtisoslashtirilgan va umumiy psixologik-pedagogik bilim, ko'nikmalarni amalda samarali qo'llay olish, bundan tashqari, o'qituvchilik kasbiy mahorat darajasini oshirib borish faoliyatli yondashuvni talab qiladi.

Shunday qilib, hozirgi zamon ta'limining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchi shaxsini rivojlantirishdir. Rivojlantiruvchi ta'lim ma'lum bir vaqtda, o'quvchining ta'limiy, tarbiyaviy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy rivojlantirish hamda uni tez o'zgaruvchan dunyoda jamiyatga, hayotga moslashuvini ta'minlovchi ta'lim nazariyasi hisoblanadi.

O'z kelajagini o'yланган har bir davlat jamiyat hayotidagi shaxsga taalluqli barcha ijtimoiy ta'sirlarni insonning rivojlanishi uchun, uning o'zligini anglashi va namoyon qila olishi uchun maqsadli ravishda yo'naltira olgan bo'lishi kerak.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalar qo'llanganda, o'quvchilar qiziqishining ortishiga, bilimlarning ko'nikmaga aylanishiga, bilim sifat-samaradorligining oshishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining aqliy rivojlanishlari, ma'naviy fazilatlarini rivojlantirib borishga asos yaratadi. Bu davrda

bolaga beriladigan bilimlar vositasida shaxsning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi va ma'nnaviy dunyosini o'stirib rivojlantirib borish-ta'limda bolaning rivojlanish jarayonini tashkil etishning asosiy ko'rinishlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
2. Abdullayeva Sh. Ta'limda o'qituvchi shaxsi va o'quvchi faoliyatini uyg'unlashtirish texnologiyalari. // Molodoy uchyoniy, 2016 yil. 9-som.
3. Azizzoxjayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.
4. Анисимов В.В., Грохольская О.Г. Подготовка будущих учителей предметам педагогического цикла // Ж.. Педагогика. – 2000. № 9 54-60 с.
5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013, 2016.
6. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – T.: Ilm-Ziyo, 2012.
7. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.